

Toshkent viloyatida demografik holat

2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026- yilning 1- yanvar holatiga Toshkent viloyatining doimiy aholisi soni **3 160,7** ming kishini tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan **1,7** % ga ko'paygan.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni **64 245** nafarni, vafot etganlar **16 984** nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **47 261** kishiga teng bo'ldi.

Ko'chib kelganlar soni **31 176** kishini va ko'chib ketganlar soni **26 295** kishini, qayd etilgan nikohlar **19 096** birlikni, nikohdan ajralishlar **4 344** birlikni tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	3 160 671	kishi
Tug'ilganlar soni	64 245	kishi
Vafot etganlar soni	16 984	kishi
Ko'chib kelganlar	31 176	kishi
Ko'chib ketganlar	26 295	kishi
Nikohlar soni	19 096	birlik
Nikohdan ajralishlar soni	4 344	birlik

II. Doimiy aholi soni


Toshkent viloyatida doimiy aholi soni 2026- yil 1- yanvar holatiga ko'ra **3 160,7** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **53 669** kishiga yoki **1,7 %** ga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 574,9** ming kishi (*jami aholi soniga nisbatan 49,8 %*), qishloq joylarda esa **1 585,8** kishi (*50,2 %*) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 574,3** kishini (*49,8 %*), erkaklar esa **1 586,4** kishini (*50,2 %*) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni (1- yanvar holatiga, ming kishi)

	2025- yil	2026- yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha:	3 108,5	3 160,7	101,7
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	57,5	58,8	102,3
Olmalik	148,9	151,0	101,4
Angren	185,5	188,3	101,5
Bekobod	106,1	107,3	101,1
Ohangaron	42,0	42,7	101,7
Chirchiq	175,5	178,3	101,6
Yangiyo'l	87,3	88,9	101,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	114,0	115,5	101,3
Ohangaron	113,0	114,6	101,4
Bekobod	168,3	170,9	101,5
Bo'stonliq	178,1	179,1	100,6
Bo'ka	136,7	138,7	101,5
Quyi Chirchiq	117,7	119,4	101,4
Zangiota	175,6	180,5	102,8
Yuqori Chirchiq	141,7	144,0	101,6
Qibray	178,7	181,7	101,7
Parkent	181,9	185,1	101,8
Piskent	103,4	104,9	101,5
O'rta Chirchiq	140,4	143,0	101,9
Chinoz	148,2	150,5	101,6
Yangiyo'l	203,9	207,7	101,9
Toshkent	204,1	209,8	102,8

Toshkent viloyatida 2026- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometr ga o'rtacha **208,8** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **2,9** kishiga ortgan (2025- yil 1- yanvar holatiga 1 kv.km.ga **205,9** kishi bo'lgan).

Aholi zichligi (1- yanvar holatiga, 1 kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni)




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **64 245** kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **20,5** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **5 331** nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **16 984** kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **5,4** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **591** nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni (yanvar-dekabr oylarida, kishi)



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **64 245** kishini, shundan o'g'il bolalar soni **33 132** kishini (*jami tug'ilganlar soniga nisbatan 51,6 %*), qiz bolalar soni **31 113** kishini (*48,4 %*) hamda shahar joylarida **29 642** kishini (*46 %*), qishloq joylarida **34 603** kishini (*54 %*) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **16 984** kishini, shundan erkaklar **9 550** kishini (*jami vafot etganlar soniga nisbatan 56,2 %*), ayollar **7 434** kishini (*43,8 %*) hamda shahar joylarida **10 034** kishini (*59,1 %*), qishloq joylarida **6 950** kishini (*40,9 %*) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi (yanvar-dekabr oylarida, kishi)




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatda 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **19 096** birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,1** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **1 015** birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **4 344** birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **226** birlikka kamaygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni (yanvar-dekabr oylarida, birlik)



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **19 096** birlikni, shundan shahar joylarida **10 041** birlikni (*52,6 %*), qishloq joylarida **9 055** birlikni (*47,4 %*) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **4 344** birlikni, shundan shahar joylarida **2 508** birlikni (*57,7 %*), qishloq joylarida **1 836** birlikni (*42,3 %*) tashkil qildi.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi (yanvar-dekabr oylarida, birlik)



V. Aholi migratsiyasi

2025- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **31 176** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **30 901** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **275** kishini tashkil etdi.

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni (yanvar-dekabr oylarida, kishi)



Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Viloyat bo'yicha:	31 176	30 901	275	26 295	23 813	2 482
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	1 004	990	14	449	436	13
Olmalik	1 485	1 442	43	1 372	1 312	60
Angren	840	833	7	837	797	40
Bekobod	594	593	1	839	822	17
Ohangaron	839	839		427	418	9
Chirchiq	2 813	2 809	4	1 613	1 439	174
Yangiyo'l	1 318	1 308	10	867	836	31
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	383	375	8	682	619	63
Ohangaron	737	737		993	965	28
Bekobod	619	619		859	853	6
Bo'stonliq	258	258		1 445	1 075	370
Bo'ka	480	480		875	706	169
Quyi Chirchiq	948	919	29	1 017	663	354
Zangiota	4 593	4 593		2 499	2 403	96
Yuqori Chirchiq	1 668	1 656	12	1 347	1 118	229
Qibray	3 086	3 035	51	2 659	2 546	113
Parkent	391	389	2	541	513	28
Piskent	602	595	7	797	764	33
O'rta Chirchiq	1 715	1 676	39	1 566	1 442	124
Chinoz	734	706	28	848	569	279
Yangiyo'l	2 231	2 220	11	2 006	1 832	174
Toshkent	3 838	3 829	9	1 757	1 685	72

Ko'chib ketganlar jami soni **26 295** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **23 813** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **2 482** kishini tashkil qildi.

VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.